

FARZAND TARBIYASIDA MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGINING O'RNI

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna

p.f.b.f.d(PhD)professor of FarDU

Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi

Pedagogika va psixologiya talabasi FarDU

Email address: sarvinozhakimova122@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada farzand tarbiyasida maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlikning o'rni, shakllari hamda zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida oila, maktab va mahalla institutlarining uzviy hamkorligiga katta e'tibor qaratilayotgani ochib beriladi. Maqolada ushbu hamkorlikni takomillashtirish yo'llari, u orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida mahalla va matabning o'zaro mas'uliyatini oshirish, oila bilan pedagogik muloqotni yo'lga qo'yish orqali tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlari: Oila-maktab-mahalla integratsiyasi, farzand tarbiyasi, maktab va mahalla hamkorligi, bolaning ijtimoiylashuvi, pedagogik hamkorlik.

Jahon tajribasida farzand tarbiyasini amalga oshirishda oila, ta'lim muassasalari va mahalla kabi ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik eng samarali mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, bolalar va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni ma'naviy va intellektual jihatdan rivojlantirish, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ushbu uchlikning roli beqiyosdir.

Tarbiya- bu keng ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyasviy vositalarini: oiani maktabgacha ta'lim muassasasi, o'quv tarbiya masalalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib

boradigan harakatidir. U aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisadir. Inson komolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o'rinda turar ekan. Tarbiya turlari:

1. Aqliy tarbiya
2. Axloqiy tarbiya
3. Jismoniy tarbiya
4. Mehnat tarbiyasi
5. Estetik tarbiya

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham ana shu "oila-maktab-mahalla" uchligi asosida tarbiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Ta'limgartarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q"¹ degan fikri 2022-yil 28-yanvarda bo'lib o'tgan maktab ta'limi rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida aytilgan. Ushbu yig'ilishda davlat rahbari maktab ta'limida poydevorni mustahkamlash zarurligini ta'kidlab, islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'qligini bildirgan. Shuningdek, maktab ta'limi sohasidagi islohotlar nafaqat Xalq ta'limi vazirligining, balki barcha idoralar, tarmoq rahbarlari, hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyorolar va keng jamoatchilikning vazifasi ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ta'limgartarbiya sohasidagi islohotlar nafaqat Xalq ta'limi vazirligining, balki barcha idoralar, tarmoq rahbarlari, hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyorolar va keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi kerak. Xususan, mahalla institutining ijtimoiy tarbiyatagi o'rni kuchaytirilib, u maktab va oilaning yaqin hamkoriga aylantirilmoqda.

Hamkorlik – bu umumiy maqsad sari yo'naltirilgan o'zaro faoliyat bo'lib, maktab, oila va jamoaning o'quvchi shaxsini tarbiyalash jarayonida birgalikda harakat qilishi yo'lidagi harakatlar majmuidir. Pedagogik kontekstdagi hamkorlik – o'quvchilarining rivoji uchun ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy muloqot va faol ishtirokni ko'zda tutadi. Hamkorlikning asosiy samarasi – sog'lom, ma'naviy yetuk, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, jamiyatga foydali shaxsni voyaga yetkazishdir.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvarda bo'lib o'tgan maktab ta'limi rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutq

Bu mas'uliyatli ish har kim uchun ham oson kechmaydi. Rizouddin ibn Fahruddinning "Oila" nomli risolasida "Bola tarbiyasi yomon niyat va qo'pollik bilan emas, balki sabr-toqat matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqat-u sezgirlik bilan bo'lishi kerak. Bundan esa bolani tizginsiz hayvon kabi o'z holiga qo'yish lozim.² degan gap kelib chiqmaydi. Zarar bilan foydani ajratolmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish katta xatodir. Balki uni qattiqlik bilan yumshoqlik o'rtasida, adolat bilan tarbiya qilmoq kerakligi haqida fikrlar keltirilgan. O'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda oila va mакtab o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning mavjudligi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu hamkorlikning samaradorligini baholash uchun maxsus ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar asosida tarbiyaviy faoliyatning sifati, natijadorligi va uzviylici aniqlanadi.

Hamkorlik shakllari:

T/r	Shakli	Tavsifi
1.	Ota-onalar yig'ilishi	O'quvchilarning o'qish va tarbiyasi yuzasidan umumiy masalalar muhokama qilinadi
2.	Individuallashgan suhbatlar	Har bir o'quvchining shaxsiy muammolari bo'yicha ota-ona bilan alohida suhbat
3.	Uy tashrifi (pedagogik monitoring)	O'qituvchi oilaviy muhitni o'rganish uchun bolaning uyiga boradi
4.	Ochiq eshiklar kuni	Ota-onalar maktabga kelib, dars jarayonida ishtiroy etishadi
5.	Tarbiya soatlari va tadbirlarga taklif	Ota-onalar maktab tadbirlarida qatnashish orqali bevosita ta'sirchanlikni oshiradilar
6.	Pedagogik maslahatlar va treninglar	Ota-onalarga bolani tarbiyalashda yordam beruvchi trening va seminarlar o'tkaziladi

² Rizouddin ibn Fahruddin. Oila. T."Mehnat" 1991,12-13bet.

Tarbiyaviy jarayonda maktab va oilaning hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bola tarbiyasidagi muhim shartlardan biridir. Aksincha, ota-onva o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqaning uzilishi tufayli bola xulqidagi muammolarni tuzatish ancha qiyin o‘tadi. Demak, bola tarbiyasi uchun mas’uliyat nafaqat maktab, balki ota-onalar zimmasida ham bo‘lib, ular muntazam aloqada bo‘lishi va birgalikda harakat qilishi lozim. Maktab va oila hamkorligining turli shakllari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘quvchining rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shadi. Masalan, sinf ota-onalar majlislari, ota-onalar bilan individual maslahatlar, o‘qituvchining oilalarga tashrifi kabi tadbirlar orqali maktab va uy o‘rtasida muloqot yo‘lga qo‘yiladi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ota-onalar faolligini oshirish, “Ota-onalar universiteti” faoliyatini kuchaytirish hamda muntazam suhbat va savol-javob kechalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ota-onva o‘qituvchi birgalikda axloqiy tarbiya masalalariga e’tibor qaratgan hollarda bolalarda halollik, vatanparvarlik, hurmat, sabr-toqat kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Uchinchidan, ta’limda muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari – ya’ni, o‘quvchining bilim darajasi, darsdagi faolligi, uy vazifalarini bajarish intizomi ham oila va maktab hamkorligining bevosa natijasidir. Muntazam axborot almashinuvi, ota-onaning pedagogik jarayonda faol ishtirok etishi bolani o‘zlashtirishini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. To‘rtinchidan, intizom va ijtimoiy moslashuv darajasi – ya’ni, o‘quvchining maktab muhitiga moslasha olishi, nizolarni bartaraf eta olish qobiliyati, psixologik barqarorligi ham samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biridir. Oila-maktab hamkorligining izchil va uyg‘un olib borilishi ushbu ko‘nikmalarning shakllanishida asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). *Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi*. Maktab ta’limini rivojlantirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi nutqi. 28-yanvar, 2022-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-dekabrdagi PF-46-sonli farmoni. *2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida*.

3. Rizouddin ibn Fahruddin. *Oila risolasi*. Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
4. G'ofurov, I., & Xudoyqulova, D. (2020). *Pedagogik hamkorlik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). *Ota-onalar bilan ishlash metodikasi bo'yicha tavsiyalar*.
6. Norqulova, M. (2022). "Mahalla – ijtimoiy tarbiyaning asosiy bo'g'ini sifatida". *Tarbiya va jamiyat jurnali*, №4.
7. Jo'rayev, A. (2019). *Oila pedagogikasi*. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti.
8. Axmedova, N. (2020). *Oila va jamiyatda tarbiya masalalari*. Toshkent: "Yangi asr avlod'i".
9. Rasulov, R. (2021). *Ma'naviy tarbiya va uning ijtimoiy asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti.
10. Xidirova, N. (2018). "Farzand tarbiyasida mahalla institutining roli". *Ijtimoiy fanlar jurnali*, №3